

## O'ZBEK ATAMASI VA UNING KELIB CHIQISH TARIXI

**Raxmatova Ondagul Oybek qizi**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy

pedagogika universiteti I bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek etnonimining kelib chiqishi, tarixiy manbalarda uchrashi hamda uning shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, "o'zbek" atamasining paydo bo'lishi haqida mavjud ilmiy qarashlar va tarixiy omillar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek, etnonim, turkiy qabilalar, O'zbekxon, etnogenez, tarixiy manbalar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются происхождение этнонима «узбек», его упоминание в исторических источниках, а также процессы его формирования. Кроме того, рассматриваются существующие научные взгляды и исторические факторы, связанные с возникновением термина «узбек».

**Ключевые слова:** узбек, этноним, тюркские племена, Ozbeg Khan, этногенез, исторические источники.

**Abstract:** This article analyzes the origin of the ethnonym "Uzbek," its occurrence in historical sources, and the processes of its formation. It also examines existing scholarly views and historical factors related to the emergence of the term "Uzbek." Keywords: Uzbek, ethnonym, Turkic tribes, Ozbeg Khan, ethnogenesis, historical sources.

### **Kirish:**

Har bir xalqning o'z nomi — etnonimi uning ko'p asrlik o'tmishi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti va davlatchilik tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Markaziy Osiyoning tub yerlik xalqlaridan biri bo'lgan o'zbeklarning milliy davlatchiligi va etnik shakllanish jarayoni juda murakkab va uzoq davom etgan tarixiy evolyutsiyaga ega<sup>1</sup>. "O'zbek"

atamasining kelib chiqishi masalasi tarixchi va tilshunos olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan izohlanadi. “O‘zbek” etnonimi nafaqat xalq nomi sifatida, balki Markaziy Osiyo tarixida muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Shuningdek, o‘zbek xalqining shakllanishi va “o‘zbek” atamasining paydo bo‘lishi turkiy qabilalar tarixiy taraqqiyoti, ularning o‘zaro aralashuvi hamda mintaqadagi siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. <sup>1</sup>

Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. — Toshkent: Universitet, 2007. — B. 45.

Ayrim tadqiqotchilar ushbu etnonimning kelib chiqishini Oltin O‘rda davridagi siyosiy voqealar va O‘zbekxon nomi bilan bog‘lasalar, boshqa olimlar uni turkiy tillardagi “o‘z” va “bek” so‘zlarining birikishi natijasida yuzaga kelgan deb hisoblaydilar. Etnograf olim Lev Gumilev “o‘zbek xalqining etnogenezi Dashti Qipchoq hududidagi turkiy ko‘chmanchi qabilalar tarixiy harakati bilan bog‘liq. XIII–XV asrlarda ko‘chmanchi turkiy qabilalar Movarounnahr hududiga kirib kelib, mahalliy aholi bilan qo‘shilib yangi etnik birlik – o‘zbek xalqining shakllanishiga sabab bo‘lgan”<sup>2</sup> deya e‘tirof etgan.

Mazkur masala tarix, tilshunoslik va etnologiya fanlari kesishgan nuqtada o‘rganiladigan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Shu sababli “o‘zbek” atamasining kelib chiqishi va uning tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o‘rni haqida turli ilmiy qarashlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### “O‘zbek” etnonimining kelib chiqishi haqidagi asosiy qarashlar

Tarixchi va arxeolog olim A.Y. Yakubovskiyning fikricha, o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni Turk xoqonligi davridan boshlangan. Aynan shu davrda mintaqaga turkiy qabilalarning yirik oqimi kirib keladi va asrlar davomida bu yerda yashab kelgan qadimgi o‘troq aholi (sug‘diylar, xorazmliklar, baqtriyaliklar) bilan aralashish, ya’ni qorishish jarayoni boshlanadi<sup>3</sup>

Etnograf olim Sergey Pavlovich Tolstov qarashlariga ko‘ra, o‘zbek xalqining etnik poydevori shakllanishi milodiy IV-V asrlarda (Xioniylar, Kidariylar va Eftaliylar davrida) boshlangan. Yakuniy etnos sifati shakllanishi esa XI-XII asrlarga to‘g‘ri keladi<sup>4</sup>.

Akademik Ahmadali Asqarov talqinida o‘zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi) haqidagi asosiy qarashlar

1. Tub yerlik (avtohton) xalq.

O‘zbeklar chetdan kelgan xalq emas, balki shu zaminning qadimgi tub aholisi hisoblanadi. Ularning eng ilk biologik va madaniy ildizlari bronza davridagi (mil. avv. II ming yillik) Andronovo va Sopolli madaniyatlariga borib taqaladi.

---

2 Gumilev L.N. Древние тюрки. – Москва: Наука, 1967.

3 Yakubovskiy A. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент, 1941.

4 Tolstov S. Древний Хорезм. Москва, 1948.

2. Shakllanishning uch bosqichi.

Olim etnik jarayonni uchta asosiy davrga ajratadi:

Mil. avv. I ming yillik – milodiy III asr: sak-massaget, sug‘diy, baqtriyalik va farg‘onalik elatlar davri (ilk biologik va madaniy poydevor).

IV–VIII asrlar: mintaqaga turkiy qabilalarning (xun, eftaliylar, Turk xoqonligi) kirib kelishi va mahalliy aholi bilan qarishishi, turkiy tilning yetakchi mavqega ega bo‘lishi.

IX–XI asrlar: Qoraxoniylar davri. Mintaqadagi barcha guruhlar birlashib, o‘zbek xalqi etnos sifatida yakuniy shakllanadi.

IX–XI asrlar: Qoraxoniylar davri. Mintaqadagi barcha guruhlar birlashib, o‘zbek xalqi etnos (xalq) sifatida yakuniy shakllanib bo‘lgan. Faqat u paytda xalq umumiy nom bilan “Turk” deb atalgan<sup>5</sup>.

Tarixshunoslik ilmida “o‘zbek” atamasining etimologiyasini tushuntiruvchi ilmiy yondashuv mavjud.

O‘z-o‘ziga bek” (erkin inson) gipotezasi - bu lingvistik jihatdan eng ko‘p qo‘llab-quvvatlanadigan qarashdir. Unga ko‘ra, so‘z "o‘z" (shaxsning o‘zi) va "bek" (hukmdor, aslzoda) qismlaridan iborat bo‘lib, "hech kimga qaram bo‘lmagan, erkin va mard kishilar jamoasi" ma’nosini anglatadi<sup>6</sup>. Venger olimi Armin Vamberi ham o‘zbeklarni "erkinlikni sevuvchi, jasur odamlar" deb ta’riflagan<sup>7</sup>. Tarixiy nuqtai nazardan, Dashti Qipchoqda markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni istamay, mustaqil yashagan turkiy qabilalar dastlab mana shunday nomlangan bo‘lishi ehtimoli yuqori.

A.Asqarov xalqning shakllanishi bilan unga nom berilishini farqlaydi. XI asrda (Qoraxoniylar davrida) Movarounnahrda to‘liq shakllanib bo‘lgan edi.

XV–XVI asrda Dashti Qipchoqdan kelgan Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi qabilalar bu yerda allaqachon mavjud bo‘lgan o‘troq

shunchaki o‘zlarining “o‘zbek” nomini bergan. Ya’ni, ko‘chmanchilar o‘zbek xalqini yaratmagan, balki unga nom va yangi qon bo‘lib qo‘shilgan<sup>8</sup>. Mahalliy o‘troq aholining tili va madaniyati yuqori bo‘lgani sababli, kelgindi qabilalar tezda o‘troqlashdi. Biroq, siyosiy hokimiyat Shayboniylar qo‘lida bo‘lgani uchun mintaqadagi barcha turkiy aholi umumiy ravishda “o‘zbek” deb atala boshladi<sup>9</sup>.

---

5 Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. — Toshkent: Universitet, 2019.

6 Aristov N.A. Zametki ob etnicheskom sostave tyurkskix plemen. — SPb., 1897. — S. 78.

7 Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1990. — B. 112.

8 Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. — Toshkent: Universitet, 2019.

9 Bo‘riboev O. Siyosiy tarix va etnik jarayonlar. — Toshkent: Akademiya, 2001. — B. 95.

O‘zbeklarning antropologik qiyofasi asosan Yevropeoid irqining O‘rta Osiyo daryolari oralig‘i tipiga mansub. Biroq asrlar davomidagi etnik qorishiqlar (ayniqsa, mo‘g‘ullar va Dashti Qipchoq qabilalari) natijasida qiyofaga ma’lum darajada mo‘g‘uloid unsurlari ham aralashgan.

XX asr boshlariga kelib, “o‘zbek” atamasi batamom muhrlandi. 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish natijasida O‘zbekiston SSR tashkil etildi va mintaqadagi barcha o‘troq turkiylar, chig‘atoylar va qipchoq-o‘zbek guruhlariga yagona o‘zbek millati ostida birlashtirildi<sup>1</sup>.

## **XULOSA**

“O‘zbek” atamasi faqatgina bitta hukmdor yoki qabilaning nomi bo‘lmay, asrlar davomida shakllangan murakkab etnik jarayonlarning mahsulidir. Uning negizidagi “erkin”, “mustaqil” degan ma’nolar xalqimizning tarixiy tabiati va o‘zligini aks ettiradi. Bugungi kunda bu etnonim jahon sahnasida boy madaniy merosga ega mustaqil davlat va qariyb 40 millionlik xalqning faxrli nomidir.

---

10 Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. — Toshkent: Sharq, 2012. — B. 310.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. — Toshkent: 2007.

Gumilev L.N. Древние тюрки. – Москва: Наука, 1967.

Yakubovskiy A. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент, 1941.

Tolstov S. Древний Хорезм. Москва, 1948.

Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. — Toshkent: 2019.

Aristov N.A. Zametki ob etnicheskom sostave tyurkskix plemen. 1897.

Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1990.

Bo‘riboev O. Siyosiy tarix va etnik jarayonlar. — Toshkent: Akademiya, 2001.

Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. — Toshkent: Sharq, 2012.